



**MODDIY-RASMLI-TIMSOLLI (MRT) YONDASHUVI ASOSIDA
5-6-SINF O‘QUVCHILARIDA FANGA OID KOMPETENSIYALARNI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.035>

Yusupov Xolmirza Alisherovich

O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti mustaqil izlanuvchi

E-mail: yusupov14071984@gmail.com

+998937951407

ORCID ID: 0009-0001-6158-2516

Annotatsiya. Mazkur maqolada 5–6-sinf o‘quvchilarida fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari moddiy-rasml-timsolli (MRT) yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — MRT yondashuvi orqali o‘quvchilarning bilimlarni ongli o‘zlashtirishi, vizual tafakkuri hamda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish samaradorligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov ishlari, taqqoslash va tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar MRT yondashuvi asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning mavzuni chuqur idrok etishi, mustaqil fikrlashi va o‘quv faolligini oshirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, mazkur metodika ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslandi.

Kalit so‘zlar: moddiy-rasml-timsolli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, metodika, vizual idrok, amaliy ko‘nikma, 5–6-sinf o‘quvchilari, ta’lim samaradorligi.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические основы развития предметных компетенций учащихся 5–6 классов на основе материально-образно-символического (МОС) подхода. Цель исследования — определить эффективность применения МОС-подхода в формировании осознанного усвоения знаний, развитии визуального мышления и практических навыков обучающихся. В ходе исследования использованы методы педагогического наблюдения, опытно-экспериментальной работы, сравнительного анализа и обобщения результатов. Полученные данные показали, что организация учебного процесса на основе МОС-подхода способствует более глубокому пониманию учебного материала, развитию

самостоятельного мышления и повышению учебной активности учащихся. Обосновано, что предложенная методика повышает эффективность образовательного процесса.

Ключевые слова: материально-образно-символический подход, компетентностный подход, методика обучения, визуальное восприятие, практические навыки, учащиеся 5–6 классов, эффективность обучения.

Abstract. This article examines the theoretical and practical foundations of developing subject-specific competencies in 5th–6th grade students based on the Material-Image-Symbolic (MIS) approach. The purpose of the study is to determine the effectiveness of the MIS approach in promoting meaningful knowledge acquisition, visual thinking, and practical skills development. The research employed pedagogical observation, experimental methods, comparative analysis, and result generalization. The findings demonstrate that lessons organized using the MIS approach contribute to deeper understanding of learning materials, enhancement of independent thinking, and increased student engagement. It is substantiated that the proposed methodology improves the overall effectiveness of the educational process.

Keywords: Material-Image-Symbolic approach, competency-based approach, teaching methodology, visual perception, practical skills, 5th–6th grade students, learning effectiveness.

KIRISH. Hozirgi davrda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida o‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy ta’lim konsepsiyasi bilimlarni tayyor holatda yetkazishdan ko‘ra, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilishi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishi hamda o‘z bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llay olish kompetensiyalarini rivojlantirishni talab etadi. Shu jihatdan, ta’lim jarayoniga innovatsion va ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlarni joriy etish dolzarb masala hisoblanadi [10; 42–45 b.].

Ayniqsa, 5–6-sinf bosqichi o‘quvchilarning bilish jarayonlari rivojlanishida muhim davr bo‘lib, bu bosqichda ular konkret tafakkurdan abstrakt tafakkurga o‘tish jarayonini boshdan kechiradilar. Mazkur davrda ta’limni vizual, amaliy va mantiqiy bog‘liqlik asosida tashkil etish o‘quv materialining samarali o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Biroq amaliyotda dars jarayonida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini to‘liq hisobga olgan holda kompetensiyalarni tizimli rivojlantirish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi kuzatiladi.

Moddiy–Rasmi–Timsolli (MRT) yondashuvi ana shu ehtiyojdan kelib chiqib ishlab chiqilgan bo‘lib, u bilimlarni bosqichma-bosqich: moddiy (amaliy), rasmi (vizual) va timsolli (abstrakt-mantiqiy) shaklda o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning yosh, psixologik va intellektual xususiyatlarini inobatga olgan holda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi [3; 15–18 b.].

Tadqiqotning maqsadi — 5–6-sinf o‘quvchilarida fanga oid kompetensiyalarni MRT yondashuvi asosida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

1. kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslarini tahlil qilish;
2. MRT yondashuvining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;
3. 5–6-sinf o‘quvchilari uchun metodik model ishlab chiqish;
4. tajriba-sinov ishlari orqali metodikaning samaradorligini baholash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma’lumki, zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, amaliy faoliyatga tayyorgarligi va muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim jarayonini optimallashtirish masalalari ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va metodlarni o‘quvchilarning yosh hamda individual xususiyatlariga mos tanlash zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [3; 7]. Psixologik tadqiqotlarda esa bilimlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish nazariyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra o‘quv jarayonida konkret-amaliy faoliyatdan abstrakt tafakkurga o‘tish mexanizmi muhim ahamiyat kasb etadi [5; 6; 8].

Rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyasida o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlarini kengaytirish, murakkablik darajasi ortib boruvchi topshiriqlar tizimi asosida bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishi ta’kidlanadi [9]. Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy va amaliy asoslari ham zamonaviy pedagogika fanida keng yoritilgan bo‘lib, ta’lim sifatini oshirishda uning ustuvorligi qayd etiladi [8; 10].

Mazkur tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov ishlari, taqqoslash va natijalarni statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida 5–6-sinf o‘quvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish MRT (Moddiy–Rasmi–Timsolli) yondashuvi asosida tashkil etildi. O‘quv materiallari dastlab moddiy (amaliy harakatlar), so‘ng rasmi (vizual modellar), keyinchalik timsolli (abstrakt tushunchalar) shaklida bosqichma-bosqich o‘zlashtirildi. Olingan natijalar tajriba va nazorat guruhlarini ko‘rsatkichlarini taqqoslash orqali tahlil qilindi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishi, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’limning 5–6-sinflari o‘quvchilarning intellektual rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib, bu davrda ularning bilish jarayonlari, mantiqiy va abstrakt tafakkuri jadal rivojlana boshlaydi. Shu sababli ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, yosh

xususiyatlariga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanish dolzarb masalalardan biridir [5, 9-b]. Ta’lim nazariyasi va amaliyotida bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etishga asoslangan Moddiy–Rasmi–Timsolli (MRT) yondashuvi aynan shu ehtiyojlardan kelib chiqadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning konkret idrokdan abstrakt tafakkurga o‘tishini ta’minlab, fanga oid kompetensiyalarni izchil rivojlantirish imkonini beradi [7; 201–205 b], [9].

Tadqiqot jarayonida pedagogika va ta’lim metodikasiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish, ta’lim jarayonini bevosita kuzatish hamda tajriba-sinov ishlarini olib borish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari asosida MRT yondashuvining amaliy samaradorligi baholandi [6]. Tajriba-sinov mashg‘ulotlari umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5–6-sinflarida o‘tkazilib, darslar moddiy, rasmi va timsolli bosqichlar asosida tashkil etildi. Har bir bosqichda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, faolligi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari tahlil qilindi. Olingan natijalar an’anaviy o‘qitish usullari bilan qiyoslab o‘rganildi, bu esa MRT yondashuvining afzalliklarini aniqlash imkonini berdi [4; 49–53b].

1-jadval

MRT (Moddiy–Rasmi–Timsolli) yondashuvi asosida 5–6-sinf o‘quvchilarida fanga oid kompetensiyalarning rivojlanish dinamikasi

Bosqich	Boshlang‘ich daraja (%)	Tajriba yakuni (%)	O‘sish (%)
Bilimlarni tushunish	48	63	15
Amaliy ko‘nikmalar	45	60	15
Mantiqiy fikrlash	50	62	12
Muammoli vaziyatni hal qilish	46	68	12
Fan kompetensiyasi (umumiy)	47	61	14

Mazkur jadvalda 5–6-sinf o‘quvchilarida Moddiy–Rasmi–Timsolli (MRT) yondashuvi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni davomida fanga oid kompetensiyalarning rivojlanish dinamikasi aks ettirilgan. Jadvalda o‘quvchilarning bilimlarni tushunish darajasi, amaliy ko‘nikmalari, mantiqiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyati hamda umumiy fan kompetensiyasi bo‘yicha boshlang‘ich va tajriba yakunidagi ko‘rsatkichlar keltirilgan. Shuningdek, har bir ko‘rsatkich bo‘yicha o‘sish darajasi foiz hisobida ifodalangan bo‘lib, bu MRT yondashuvining o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, bilimlarni ongli va barqaror o‘zlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etishdagi samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab beradi [8].

Rasmida 5–6-sinf o‘quvchilarida an’anaviy o‘qitish usuli hamda Moddiy–Rasmlı–Timsolli (MRT) yondashuvi asosida ta’lim berish jarayonida fanga oid kompetensiyalar rivojlanish ko‘rsatkichlari qiyosiy tarzda aks ettirilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, bilimlarni o‘zlashtirish, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, mustaqil fikrlash darajasi, o‘quv faolligi va umumiy fanga oid kompetensiya kabi asosiy ko‘rsatkichlarning barchasi bo‘yicha MRT yondashuvi asosida tahsil olgan o‘quvchilarning natijalari an’anaviy o‘qitish usuliga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi kuzatiladi. Ayniqsa, o‘quv faolligi va bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘rsatkichlarida sezilarli o‘sish qayd etilgan bo‘lib, bu MRT yondashuvining o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishdagi yuqori samaradorligini tasdiqlaydi .

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, MRT yondashuvi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini sezilarli darajada oshiradi. Moddiy bosqichda o‘quvchilar real buyumlar, modellar va tajribalar orqali bilimlarni bevosita idrok etib, mavzuga nisbatan qiziqishlari ortdi. Rasmlı bosqichda bilimlar vizual vositalar orqali tizimlashtirilib, o‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlandi. Timsolli bosqichda esa o‘quvchilar o‘zlashtirilgan bilimlarni tushuncha, qoida va ramzlar orqali ifodalashga o‘rgandilar, bu esa ularning abstrakt tafakkurini shakllantirishga xizmat qildi. Natijada, o‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalar, ya’ni bilimlarni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda qo‘llash va xulosa chiqarish qobiliyatlari rivojlandi. Tadqiqot davomida MRT yondashuvi an’anaviy usullarga nisbatan yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligi asoslab berildi [3].

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda MRT yondashuvi 5–6-sinf o‘quvchilarida fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali pedagogik modeli sifatida taklif etildi. Tadqiqotda moddiy, rasmlı va timsolli bosqichlarning mazmuni va ularni ta’lim jarayonida izchil qo‘llash mexanizmlari batafsil yoritildi. Shuningdek, MRT yondashuvi asosida tashkil etilgan darslarning o‘quvchilar bilish faoliyatiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Ushbu yondashuv umumiy o‘rta ta’lim amaliyotida kompetensiyaviy yondashuvni samarali joriy etish uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi [4].

XULOSA

Moddiy–Rasmlı–Timsolli (MRT) yondashuvi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni 5–6-sinf o‘quvchilarida fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda yuqori va barqaror natijalar berishini tajriba-sinov ishlari natijalari yaqqol tasdiqladi. Tadqiqot davomida tuzilgan jadval ma’lumotlariga ko‘ra, o‘quvchilarning bilimlarni tushunish darajasi tajriba boshida 48 % ni tashkil etgan bo‘lsa, MRT yondashuvi asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar yakunida ushbu ko‘rsatkich 63 % ga yetgan, ya’ni 15 % lik o‘sish qayd etilgan. Amaliy ko‘nikmalar ko‘rsatkichi 45 % dan 60 % gacha oshib, 15 % lik ijobiy dinamikani namoyon etdi. Mantiqiy fikrlash

darajasi esa 50 % dan 62 % gacha ko‘tarilib, 12 % lik o‘shish bilan tavsiflandi. Rasm natijalari ham MRT yondashuvining samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, bilimlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi an’anaviy o‘qitish usulida 62 % ni tashkil etgan bo‘lsa, MRT yondashuvi asosida ushbu ko‘rsatkich 65 % ga yetgan. Bilimlarni amaliyotda qo‘llash darajasi an’anaviy usulda 58 % bo‘lgan holda, MRT yondashuvida 82 % ni tashkil etdi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘rsatkichi 55 % dan 60 % gacha, o‘quv faolligi esa 60 % dan 68 % gacha oshgani kuzatildi. Umumiy fanga oid kompetensiya darajasi esa an’anaviy usulda 59 % bo‘lgan bo‘lsa, MRT yondashuvi asosida 64 % ga yetdi.

Keltirilgan raqamli natijalar MRT yondashuvi o‘quvchilarning bilimlarni ongli, izchil va barqaror o‘zlashtirishini ta’minlash bilan birga, ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shu bois, Moddiy–Rasmlı–Timsolli (MRT) yondashuvini umumiy o‘rta ta’lim tizimiga, ayniqsa 5–6-sinflar amaliyotiga keng joriy etish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 56 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. – 168 b.
4. Babanskiy Yu.K. Optimizatsiya protsessi obucheniya. – Moskva: Pedagogika, 1982. – 192 b.
5. Galperin P.Ya. Vvedeniye v psikhologiyu. – Moskva: Universitet, 2000. – 336 b.
6. Saidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2012. – 240 b.
7. Vygotskiy L.S. Myshleniye i rech. – Moskva: Labirint, 1999. – 352 b.
8. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. – 256 b.
9. Zankov L.V. Razvitiye obucheniya. – Moskva: Pedagogika, 1975. – 208 b.
10. Zunnunov A., Qodirov A. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 152 b.